

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida:
UDK**

**ALLAMURADOVA DILFUZA
“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA KULFU AMALINING
IFODALANISHI**

**MAGISTR
AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA**

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.**

O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri: prof.A.Abdusaidov

Ilmiy rahbar: prof.B.Yo'ldoshev

SAMARQAND - 2012

ISHNIIG U MUMIY TAVSIFI

Mavzunim dolzarbligi va o'rganylish darajasi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarga e'tiбор kuchaydi. Zotan, siyosiy mustaqillikni mustahkamlash uchun iqtisodiy mustaqillikka erishish. kabi, myllatshshg o'zligyani anglatish ham shunchalik muhimdir. Chunki milliy g'urur milliy mustaqillikning eng birinchi belgilaridan biridir. Milliy g'urur yo'q joyda milliy madaniyat tiklanmaydi, milliy madaniyat tiklaimagai joyda esa milliy mamlakat shakllanmaydi.

Mamlakatimiz Prezidenta I.A.Karimoi: «O'zbekiston XXI asr busag'asida. Xavfsiolikka tahhid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida alohida ta'kidlaganlaridek: «Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlnkni anglashniig o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uniig ildizlariga qaytishdan iborat o'zviy, tabiiy jarayon dsb hisoblaymiz.»¹

Shundan ulug' mas'uliyatni zimmasiga olgan yozuvchilarimizdan biri Abdulla Qodiriy "Julqunboy" edi. Uning yozgan har satr so'zi millat taqdiriga, kuyinish bilan yo'g'irilgan. Kichik hiqoyalari, hajviyalari, jurnal maqolalaridan tortib «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon» singari yirik asarlarigacha - hammasi o'zbekning taqdiriga, uning o'tmishi va buguniga kuyinib bitilgan.

«Mehrobdan chayon» romani yozuvchining yirik nasrda tajribasi ancha ortgandan so'ng bitilib, unda yaigi romanchilnk, xususan o'zbek xalqining estetik ehtiyojlariga javob bera oladigan romanchilik tamoyillari aniq ko'zga tashlanishini ta'kidlashimiz lozim. Binobarin, bu roman poetikasini o'rganish o'zbek romanchilik maktabining tamal toshiga aylangan tushunchalarni yaxshiroq ilgashimizga ham bois bo'lishi mumkin. «O'tkan kunlar» asarida o'zbek xalqi uchun yangi hodisa bulgan yirik prozaning tamal toshini quygan yozuvchi romanchilikniig bundan keyingi rivojlanish yullarini ham belgilab bermog'i lozim

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўиисаида. Хавфсизликка тахдид, Борқарорлик шартлари ва таракқиёт кифолатлари.

edi. Abdulla Qodiriy bu vazifani sharaf bilan bajardi. Yezuvchining ijodiy tafakkuri shu bilan chegaralanib qolmadi.

«Mehrobdan chayon» romani shunday yangicha izlanishlarining mahsuli bo'lib duiyoga keldi.

O'zbek adabiyotshunosligida prozaik asarlar poetikasining o'rganilishi nisbatan keyingi davrlarda ancha kuchaydi. Jumladan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi mahorat masalalari haqida ham qator yangi ishlar sezildi. Abdulla Qodiriy oqlangan 50-yillardan boshlab u haqida yozilgan va yozilayotgan ishlarda yozuvchi dunyoqarashi bilan birga badiiyat masalalari ham har doim ko'tarib kelinmoqda. Oybek, A.Aliyev, M.Qushjonov, U.Normatov, Izzat Sulton, S.Mirvaliyev, S.Mamajonov, N.Karimov, H.Yequbov, M.Sultonova, I.Mirzayev, A.Rahimov va boshqa olimlar badiiyat masalalarini tahlil etganda, ayrim namunaviy misollarga ehtiyoj sezilganda, ko'pincha, Abdulla Qodiriy ijodiga murojaat qiladilar. Bu borada, ayniqsa, M.Qushjonov, U.Normatovlarning e'lon qilingan ishlarini alohida tilga olmoq darkor¹. Bizningcha, sanab o'tilgan va tilga olinmagan boshqa olimlarning ishlarida interpretasiya - talqin ko'p o'rin tutgan.

To'g'ri, adabiyotshunoslik badiiy asarni tekshirayotganda matnni talqin etmasligi mumkin emas, Biroq talqin har doim subyektiv fikrlarning isboti uchun keng imkoniyat yaratgani holda, ayrim obyektiv jihatlarni tahlil etish uchun ko'p o'rinda sharoit qoldirmasligini ham e'tiborda tutish lozim. Zamonaviy germenevtika metodi ko'p talqinlilikni asarning badiiyat jihatidan mukammalligi belgisi, deb qarash kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Biz ko'p talqinlilik asarning badiiyati yuksakligidan belgi ekanligi haqidagi fikrlarga e'tiroz bildirmagan holda, turli-tuman fikrlar, gachqindarnish hammasini bir maxrajga

¹ Караиғ: Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижодий йули. —Т.: 1936, Аллев А. Абдулла Қодирий. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1967; Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати. — Т.: Ўздавнашр, 1958; Қўшжонов М. Қодирий - эркислик қурбони. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1991; Норматов У. Қодирий боғи. -Т.: Ёзувчи, 1995; Султанов И. Абдулла Қодирий нжоди ҳақида ("Уткан кунлер" романига сузбоши). - Т.: Узадабиннашр, 1958; Султан И. Адабиёт назарияғи. - Т.: Уқптувчи, 1980; Султонова М. Ёзувчи услуби. -Т.: Фай, 1973; Мп.мажонов С. Услуб жилолари. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1979; Мириалиев С. Узбек романи. —Г.: Фан, 1969; Мирзаев И. Абдулла Қодирй »нинг ижодий эволюцияси. -Т.: Фан, 1977.

keltiradigai obyektiv qoiuniyatlar borligini, ular asarning poetikasida namoyon bo'lishini ham ta'kidlamogchi edik.

Tadqiqotshing maqsadi va vazifalari. Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romaniga asos solgani, uning yaqin kelajakdagi rivojlanish tamoyillarini belgilab berganini alohida ta'kidlash shart emas. Biz «Mehrobdan chayon» romanining poetikasini o'rganish jarayonida o'zbek adabiyoti uchun yangi bo'lgan roman janrining shakllanish bosqichida adiblar oldida qanday muammolar ko'ndalang bulganini, roman janri qanday manbalardan oziqlanib, qanday omillarning mahsuli o'laroq maydonga kelganini, uning tushunilishidagi ijtimoiy-estetik ehtiyojning nimalardan iborat bo'lganini, dunyoning yangi romanchilik maktabiga asos solgan yozuvchi roman strukturasi qanday to'zganini, uning boshqa romanchilik maktablaridan farqi nimada ekanligini, yozuvchi o'z oldiga quygan maqsadini amalga oshirish uchun qanday yul va usullardan foydalanganini tekshirishni maqsad qilib oldik. Ushbu maqsad tadqiqot oldiga quyidagi vazifalarni o'tashni shart etib qo'yadi:

- romanning fabula, syujet va kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklarni aniqlash;
- ushbu o'ziga xosliklarni keltirib chiqargan estetik ehtiyojni tayin etish, ularning milliy ildizlarini tadqiq etish;
- ijtimoiy muhit tasvirini berishda yozuvchi tutgan yo'lni aniqlash;
- retrospektiv tasvir, etnografik unsurlarning roman syujetida o'ynagan rolini aniqlashtirish;
- muallif nugqining asosiy qirralarini belgilash, uning voqyealarni va muhitni tushunish yulini ko'rsatib berishi;
- qahramonlar nutqidagi o'ziga xosliklar vositasida yozuvchiing milliy koloritni, muhitni yaratishdagi mahoratni ochish;
- qahramonlarga va voqyealarga xarakteristika bershm va hokazo.

Tadqiqopshing ilmiy metodologik asoslari. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar mafkura sohasida ham jiddiy yangilanshsha olib keldi. Prezident Islom Karimov asarlarida iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning strategiyasi na taqshkasi batfsil ko'rsatib, isbotlab berildi.

Prezidentimizning qator kitoblarida, nutq va chiqishlarida ta'kidlangan milliylik g'oyalari bizning ishimizda ham bosh tamoyil bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotshunosligimiz ko'p yillar davomida amal qilib kelgan socialistik rsalizmning metodologik mezonlari soxta ilmiy poydevor ustiga bino bo'lgany bugun ko'pchilikka ma'lum. Lekin haqiqiy bilimlarimiz har qator metodologik qobiqga kirib chiqishga harakat qilgani asl bir haqiqatdir. Ustoz olimlarimizning kuplab ilmiy mulohazalari, kuzatish va xulosalari, teran izlanishlari umuminsoniy qarashlar, insonparvarlik aqidalariga suyangani uchun xam bizning ishimizda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayni chog'da, biz zamonaviy germenektika, strukturalizmning ijodiy metodlaridan ham imkon qadar foydalanishga harakat qildik. Biz tadqiqotimizning ilmiy metodologik asosi, avvalo, o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy ishlariga suyanganiiii, igundai keyingina Rolan Bart, Yan Mukarjovskiy, Roman Yakobson, Klod Lein-Stross singari strukturalizm nazariyotchilari, V.M.Jirmunskiy, V.Shklovskiy, Yu.Tinyanov kabi «formalizm» oqimining asoschilari, shuningdek, yirik rus adabiyotshunosi M.Baxtin asarlarida bayon qilingan bir qator fikrlarga tayanganini ta'kidlamoqchimiz.

Tadqiqotning asosi i manbai. etib Xondamir Qodiriy nashrga tayyorlab, 1992 yili G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasida chop etilgan matnni oldik. Bu matn yozuvchining o'zi tahrir etgan, bosilishidan oldin yana bir qarab chiqilgan nusxalari asosida chop etidgani uchun ham bizga birlamchi manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotniig ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy yangiligini biz, avvalambor, «Mehrobdan chayon» romanining birinchi marta monografik tadqiqot obyekti qilib olinganida ko'ramiz. Ikkinchidan, tahlil davomida romanning g'oyaniy-siyosiy jihatlariga e'tibor qaratmaslik ushbu tadqiqot strukturasiining ham butunlay yangilanishiga olib keldi, deb uylaymiz. Biz, roman tahlilida fabula, syujet va komprzisiyaga ko'proq e'tibor berdik va bu hol mazmunning mohiyatini ochishda katta imkoniyatlarni yuzaga chyarishini ko'rdik. Uchinchidan, «Mehrobdan chayon» romanining tahlilida shu mahalgacha amalda bo'lgan qarashlar bilan bir qatorda zamonaviy adabiyotshunoslik

foydalanadigan metodik va metodologik ishlarga tayanganimiz ham bizga yangi ish yozdik, deyish huquqini beradi, deb o'ylaymiz. To'rtinchidan, dissertasiyamiz qodiriyshunosliqdagi ayrim masalalarniig yoritilishida, buyuk ijodkor asarlarini bor murakkabligi, rang-barangligi, o'ziga xosliklari bilan tadqiq etishda qo'shimcha manba rolini o'tashidan umidimiz bor. Bsshinchidan, adabiyotimiz xazinasining durdonalariga aylangan asarlarni qayta tadqiq etish jarayoni jadal kechayotgan bugungi zamonda shunday ishga eng go'zal romanlarimiz biri bahonasida kirishilgani ham bir yangilik deb qabul etilishi mumkin.

Tadqiqotimizdan ko'zatiladigan amaliy ahamiyat masalasiga keladigan bo'lsak, u milliy adabiyotimizni o'qitish va o'rganishda oliy maktablar va kollejlarning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun bir qo'llanma vazifasiga da'vogar ekanligini umid qilib turibmiz. Undan talabalar orasida ilmiy-amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ham foydalanish mumkin deb o'ylaymiz.

Tadqiqotning ilmiy jamoatchilik e'tiboridan o'tishi.

Tadqiqotniig to'zishi. Dissertasiya ishi kirish, ikki asosiy bob va xulosadan iborat. Ish so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ruyxati berilgan.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida leksik-semantik guruh (LSG) larni o'rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar bir qanchani tashkil etadi. Bu ishlarda prof.Qo'chqortoyevning "so'z ma'nosi va uning valentligi" kitobida o'zbek tilida nutq fe'lari izohi hamda lug'aviy birlik va uning ta'rifi, lug'aviy birlik semantikasi, leksik ma'no va uning mohiyati, o'zbek tilidagi nutq fe'llari semantikasi tahlil etiladi.

Bir guruh olimlarning fikricha, til birligi bo'lgan fonema nutqda konkret tovushlarda (variantlarga) reallashgani kabi so'z ma'nosi (umumiy ma'no) ham nutqda o'ziga xos variantlarga reallashadi. Masalaning bunday qo'yilishi ikki hodisani o'zaro farqlashni taqozo etadi:

- 1) Umumiy ma'no 2) umumiy ma'noning variantlari.

So'z ma'nosini bunday tushunish polisemiyaning rad etadi. Bu nuqtai nazarga muvofiq, asosiy ma'no, to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no, kabi terminlar real hodisalarni bildirmaydi. So'z bunday ma'nolarda ega emas. So'z bir qancha ma'noga ega bo'lmaydi.—deb yozadi V.A.Zveginsev.— so'z ma'nosida muayyan umumlashtirish natijasi mustahkamlanar va bu umumlashtirish protsessi tilning igrp hayoti va taraqqiyoti davomida to'xtamas ekan, bir so'zda bir nechta yo'nalishdagi umumlashtirish parallel amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun so'zda birdan ortiq ma'no ham yuzaga kelmaydi. Chunki, A.V.Zveginsevning fikricha, polisemiya hosil bo'lishi uchun so'zda birdan ortiq yo'nalishdagi umumlashtirish parallel amalga oshishi shart. "So'z ma'nosi bir qancha potensial tipik birikuvlardan tashkil topishi mumkin" – deb yozadi. A.V.Zveginsev – bunda mazkur potensial tipik birikuvlar so'zning yagona ma'nosini turli tomondan tavsiflaydi. V.A.zvegensev so'zning potensial tipik birikuvlarini so'zning leksik-semantik variantlari deb ataydi. So'zning leksik-semantik variant tushunchasi tilshunoslikdagi leksik ma'no tushunchasiga to'g'ri keladi. Masala bunday qo'yilganda so'zning turli leksik-semantik variantlari orasidagi munosabat haqida emas, balki, umumiy ma'no va uning variantlari

orasidagi munosabat haqida gapirish o'rinli bo'ladi. So'zning leksik-semantik variantlarida mazkur so'z ko'rsatadigan turli predmet va hodisalarning o'ziga xos va shu bilan bir qatorda umumiy xususiyatlari ifodalanadi. Shu tariqa so'zda turli predmetlarning "umumiy xarakteristikastkalari" yig'ladi va bu xarakteristikalar shu so'zning leksik ma'nosida umumlashdi. Demak, so'zning leksik ma'nosi shu so'z tomonidan ko'rsatilgan predmet va hodisalarning umumiy xususiyatlari inikosidan tashkil topadi. Bundan shu narsa anglashiladiki, so'zning leksik-semantik variantlari real hodisalar bo'lib, umumiy ma'no abstrakt, mavhum hodisadir. Umumiy ma'noning abstrakt, mavhum hodisa ekanligini V.A.Zveginsev alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Bu mulohazalardan лудши chiqadigan prinsipial xulosa shundan iboratki, leksik-semantik variant termini ob'yektga ya'ni tilga tegishli empiric hodisaning nomi bo'lsa, umumiy ma'no termini nazaryaga, obyektini (tilni) tushuntirish yo'siniga tegishli konstrukt hodisaning nomidir.

Leksik-semantik variant termini tilde ko'rsatiladigan, o'rganiladigan real hodisalarning nomi bo'lgani uchun bu terminning mazkur hodisalar tabiatiga qanchalik mos kelish kelmasligiga bir muncha to'z talib o'tishni lozim topamiz.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, leksik-semantik variant nazaryasiga so'z ma'nosiga taaluqli bo'lgan muhim bir masala juda sezgirlik bilan to'g'ri qayd etilgan. Bu – leksik ma'no bilan shu ma'no ifodasi bo'lgan leksemaning sintagmatik pozitsion o'rni orasidagi o'zaro taqozodorlik munosabati. Muayyan ma'nodagi so'z muayyan sintaktik pozitsiya ya'ni taqozo etgani kabi, muayyan sintaktik pozitsiya ham shu pozitsiyaga mos keladigan ma'nodagi so'zni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, sintaksis qanchalik semantic tabiatga ega bo'lsa, semantika ham o'z novbatida, shunchalik sintaktik tabiatga egadir. Leksik ma'noning bu xususiyatini to'g'ri ko'rsatgan A.V.Zveginsev so'z semantikasining structural harakatini tan olmaydi. Olimning yozishicha so'zning leksik-semantik variantlari leksik ma'no nuqtai nazardan bir xil hodisalaridir, ularning biri ikkinchisiga asoslanmaydi yoki biri ikkinchisidan лудши chiqmaydi. Mazkur variantlar so'z ma'nosining detallari, xususiyatlaridir. Shuning uchun so'zda leksik-semantik variantlarning bir-birlariga munosabati, bir-biriga ta'siri haqida

gapirish o'rinsiz. Bu konsepsiyaga muvofiq so'z polisemiyasi haqida emas, balki faqat so'z monosemiyasi haqida gapirish lozim. Chunki so'zning leksik ma'nosi bitta bo'ladi. Lug'atlarda polisemantik ma'nolar sifatida izohlanadigan hodisalar bir umumiy ma'noning variantlari detallaridan boshqa narsalar emas¹.

Til strukturasi leksik-semantik sathi o'rganilgan ham, fonetik sathi o'rganilganda ham, sintaktik sathi o'rganilgan ham biz bu terminlardan keng foydalanamiz. Demak, bu temin ifodalaydigan hodisa (yani so'z) tilning asosiy yetakchi elementlaridan biri hisoblanadi. Lekin alohida olingan so'z kommunikatsiya amali ham, tafakkur vositasi ham bo'lolmaydi. So'z o'zining bosh ya'ni ekstralingvistik hodisalarini atash, ko'rsatish vazifasini faqat nutq amalida bajaradi. Shunday ekan, so'zning nutq amalida ishlatilishi, uning boshqa so'zlar bilan birikib kelishi tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmog'I lozim. Shunday ekan, leksemani boron-bir matnda yoki badiiy asarda qo'llanilishi zamirida u anglargan semantic jihatiga katta e'tibor beriladi².

O'zbek tili so'z xaritasida fe'l turkumining o'zi biro lam. U lug'at qatlamining katta qismini tashkil etadi. Bu kategoriyaning grammatik va stilistik xususiyatlari juda murakkab va qiziqarli. Har qanday harakat holat va uning nozik etaplari, emotsiyasi obyektga obektiv borliqqa biror shaxsga bo'lgan modal exspressiv munosabat bildiradi. Bu ishlarda prof.I.Qo'chqortoyevning "So'z ma'nosi va uning valentligi" kitobidao'zbek tilidagi nutq fe'llari izohi hamda lug'aviy birlik va uning ta'rifi, lug'aviy birlik semantikasi, leksik ma'no va uning mohiyati, o'zbek tilidagi nutq fe'llari samaradorligi tahlil etiladi.

O'zbek tilidagi holat fe'llari arxisema va differensial semaga ham egadir. Bu sema "holat" arxisemali va muayyan differensial semali holat fe'llarining ichki semantic guruhlar uchun umumiydir. Bu tip semalar arxisema bilan differensial semalar o'rtasida turadi, o'ziga xos informatsiya tashiydi. Bunday semalar manbaalarda integral sema sifatida qayd etiladi³.

¹ И.Қўчқортоев. сўз маъноси ва унинг валентлиги. Тошкент, 1977, 21-3 бетлар.

² Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1989 йил.

³ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент. "Фан" нашриёти. 1987 йил, 5-бет.

Integral semalar ham nisbiy bo'lib, differensial semalarga nisbatan hajm jihatdan keng ya'ni biror LSGga oid so'z ma'nolariga umumiy xos belgi – xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ammo integral sema arxisemaga nisbatan hajm jihatdan torligi shuki, u faqat muayyan mikrosistemaga (semantik guruhga) oid leksema sememalari bilan bog'lanadi. Arxisema esa leksema sememasining hajm jihatdan eng katta mazmun jihatdan boy mantiqiy komponentdir¹.

Arxisemasi “holat” semali fe'larning har bir ichki LSGsi o'ziga xos integral semalarga ega bo'ladi. Bu integral semalar bir-biridan tovush materiyasi va mazmun planiga ko'ra farqli, ammo nomlash aspektidagina bir xillik kasb etadi.

Dixatomik prinsipiga ko'ra so'z sememalari dasavval umumiy va farqli semalarga bo'linadi. Umumiy sema o'z ichida arxisema va integraql semalarga differensial semaga nisbatan umumiy sema hisoblanadi. Integral sema ham dasavval arxisema sostavida bolib, analitik natijasida ajratiladi. Biri ikkinchisiga nisbatan qiyosan olinganda holat fe'llari sememasi arxisememasining umumiyligi keng planda, maksimal darajada bo'lib u o'zbek tili masshtabida holat fe'llariga xos indentifikatsiyalovchi sema sanaladi. Integral semaning differensial semaga nisbatan umumiyligi arxisema umumiyligiga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Integral sema ham arxisemaga o'xshash ammo doimo arxisemadan so'ng yuzaga keladigan, aniqlanadigan arxisema ifodasining doirasini nisbatan toraytirib beradigan sema sifatida biror LSGni tashkil qiluvchi mikrosistemalarni aniqlaydi, integral semaning umumiyligi differensial semaga nisbatan birinchi darajali bo'lib (integrak sema) holat fe'llarining u yoki bu LSGlarini hosil qiladi².

Har qanday umumiylik xususiylikdan, alohidalikdan, ularning mantiqiy ichki bog'lanishidan yuzaga keladi va situatsiyaga qarab xususiylik sifatida, unga xos belgi-xususiyatlar esa xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Ular nisbiy mustaqillikka, alohidalikka egadir. “Holat” arxisemali fe'llarning mustaqilligini, alohidaligini taminlovchi, til va nutq birligi bo'lib izohlanishiga stimuly beruvchi sema hisoblanadi.

1

2

Shuni ta'kidlash kerakki, leksema sememalarning structural-semantik komponentlarini miqdor jihatdan chegaralash nisbiy xarakterga ega. Asosan diqqa e'tibor leksema semasining eng muhim xarakterli semalariga – differensial semalariga qaratiladi. Leksema semalarining semalar sostavida esa differensial semalar o'ziga xos xususiyatda – odatda bittadan ortiq bo'ladi. Bunday hollarda tekshirish obektining xarakteridan, talabidan, maqsadidan лудши chiqib, differensial semalardan eng zaruriysi, muhimi olinadi. Boshqasi potentsiya sifatida saqlanadi. Demak, holat fe'llarining semantic strukturasi muhim, zaruriy differensial semalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Holat fe'llarining arxisemasi “holat” integral va differensial semalardan konkretlashib, aniq ifodaga ega bo'ladi. Integral va differensial semalar smaning konkretlashtiruvchi struktur-semantik komponentlari sifatida arxisema bilan dialektik birlikni tashkil qiladi.

Arxisema, integral sema va differensial semalarning ifoda birliklari asosida tuzilgan sintaktik konstruksiyalar holat fe'li sistemasining izohi bo'ladi.

O'zbek ilidagi holat fe'llarini komponent e'tiboriga ko'ra tahlil qilishda bu semantic maydonning quyidagi LSGlardan tashkil topishi aniqlanadi.

1. Davomli holat fe'llari.
2. Harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari.
3. Ijro holati fe'llari
4. Harakatning holati fe'llari
5. Malaka holati fe'llari
6. Obzorli holat fe'llari
7. Biologik holat fe'llari
8. Fiziologik holat fe'llari
9. Psixik holar fe'llari

Qayd etilgan LSGlarda “holat” arxisema, “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “harakat”, “malaka”, “obrazli”, “biologik”, “fiziologik” va ‘psixik” kabi semantic komponentlar integral sema bo'ladi.

Anglashilishicha, o'zbek tilida holat fe'llarida rellashuvchi logic ыгиуле holati davomli, harakat natijasi, ijro, harakatning holati, malaka, obrazli, biologik, fiziologik va psixik holat kabi ko'rinishlarda sodir bo'ladi.

Demak, obektiv borliqdagi turlicha holatlarni aks ettiruvchi holat fe'llari semantikasining murakkab xarakteri mantiqiy ravishda holat fe'llarining nazarda tutilgan 9 tipidan iborat semantic guruppalanishiga olib keladi. Biz bu LSG holat fe'llarining semantic valentliklarini tasvirlashda fe'l sememasidagi va rellashish darajasi kabilardan лудши chiqib, holat fe'llarining agens, kontragent, lokalis, щинулеб adresat, va boshqa semantic valentliklarini aniqladik¹.

R.Rasulovning o'zbek tilshunosligida LSGlarni o'rganish sohasi bo'yicha qilingan ishlari o'ta muhimdir. Uning O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari" kitobida LSG sohasidagi tadqiqotida o'zbek tilidagi holat fe'llarining agens, lokalis va щинуле valentliklarigina yaratilgan. Chunki bu tip semantic valentliklar holat fe'llarining obligator valentligi sifatida alohida "qadrlanib" holat sememali fe'l leksemalar uchun birinchi darajali ahamiyati bilan ajralib turadi.

b) "kulgi" amali va uni ifodalovchi LSG haqida umumiy tushuncha:

O'zbek tilida psixik-fiziologik amalni ifodalovchi lisoniy vositalar orasida "kulgi" holatini bildiruvchi leksik-frazeologik birliklar ham alohida o'rin tutadi. "Kulgi" holatini bildiruvchi fe'llar va fe'l frazemalar birlashib, alohida leksik-semantik guruh (LSG) ni tashkil etadi. Bunday LSG tarkibiga kiruvchi birliklar ma'nosining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bildiradigan "kulgi" holati odamning xursan bo'lish, zavqlanish natijasida yuzaga keladi.

"Kulgi" haqidagi tasavvular inson dunyoqarasining o'ziga xos xususiyati bo'lgani uchun uni o'rganish falsafa, psixologiya, sotsiologiya tilshunoslik kabi bir qator ijtimoiy gumanitar fanlarning kompleks yondashuvini talab qiladi. O'zbek tilida ko'pincha "kulgi" kulmoq, kulimsiramoq, kulimsimoq, tabassum qilmoq, iljaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq kabi so'zlar yordamida ifodalanadi. Bu so'zlarning etimologiyasini lug'atlardagi leksikografik talqini, "Mehrobdan

chayon” romani matnidagi funksional semantik xususiyatlarini ko’zdan kechirish orqali ularning “kulgi” amalini ifodalashdagi o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqamiz.

“Kulgi” so’ziga besh jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati” da quyidagicha izoh berilgan. “g’am-alam, og’riq, iztirob va shu kabilar tufayli yuzaga keladigan ruhiy holatning ko’z yosh, o’ziga xos tovush bilan kuzatiladigan ifodasi. Shunday holat bilan yuzaga keladigan ko’z yoshi, tovush” (O’TIL II 272 bet).

Azoblanayotgan kulgi holatini ifodalovchi fe’llarning ma’noviy yadrosini kulmoq fe’li tashkil etadi. Kulmoq fe’li (umuman kulgi holatini ifodalovchi fe’llarning barchasi) amaliy-ma’noviy jihatdan bir valentli modelga ega¹. Bunday fe’llarning yagona valentligi, agens valentligi bo’lib, ular nutqiy jarayonda shaxs nomlari o’rnida qo’llanuvchi boshqa turkumga oid so’zlar yordamida reallashadi.

Masalan, Hamma kulishi yubordi (A.Qoiriy “Mehrobdan chayon” 128-bet) Bu so’zdan Ra’no batamom kulib yubordi (“Mehrobdan chayon” 81); Anva boyag’icha yana kuldi (“Mehrobdan chayon” 90) kabilar.

Hozirgi o’zbek adabiy tilida “kulgi” holatini umumiy tarzda ifodalashda ko’proq yig’lamoq fe’lidan foydalaniladi. Bu fe’l shu semantik guruhga kiruvchi boshqa fe’llarga nisbatan informativ jihatdan sayoz, mavhum so’z sanaladi. Nutq jarayonida bu so’z kulgi holatini ko’proq qayd qilish uchun qo’llanadi. Shunga ko’ra bu fe’l kulgi holati haqida qo’shimcha emotsional-ekspressiv xususiyatlarni o’zida aks ettirmaydi. Shunga ko’ra bizningcha kulmoq fe’li shu semantik guruh doirasida boshqa so’zlar uchun doinanta deb baholash o’rinlidir².

Negaki, bu fe’l o’zi ifodalagan amal, kulgi sinfiga mansubligini bildiradi. Lekin bu amal to’g’risidagi qo’shimcha ma’lumotlar emotsional-uslubiy nozikliklar matn tarkibida boshqa verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanadi.

O’zbek tilidagi holat fe’llarining semantik valentligini obligator valentliklarini yoritishdan avval holat fe’llari uning ichki leksik semantik

1

2

gruppalari haqida fikr yuritish, ularni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, turkey tilshunoslikda holat fe'llari semantik maydoni shu vaqtgacha konkret ajratilgan emas, holat fe'llari o'z ichida mukammal tasnif qilinib, alohida ilmiy tekshirish obyekti bo'lan. Vaholanki, sovet tilshunosligida fe'l kategoriyasi haqida fikr yuritilgan manbaalarning deyarli barchasida harakat fe'llari bilan parallel ravishda holat fe'llari ham alohida tilga olinadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlariga egaligi ta'kidlanadi¹.

O'zbek tilidagi holat fe'llari obyektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat fe'llari moddiy asosiga ko'ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o'ziga "joylashtirish" bilan boshqa semantic maydonga kiruvchi fe'l leksemalarda ajralib turadi.

Holat fe'llari ma'nosida reallashuvchi holat muayyan logik subyekt doirasidagina sodir o'lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolish bilan xarakterlanadi. Holat fe'llari holat ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo'ladi.

Holatning realligi, obektivligi, uning muayyan shaxs yoki predmetda 'to'planish", unda "moddiylashishi" bilan bog'liq ekan, demak logik subyektning mavjudligi faqat uning absalyut harakati bilan emas, balki, uning "absalyut" holati bilan ham o'lchanadi.

Aniqrog'i, holat ham materiyaning yasash formasidir. Ammo holat nisbiyligi bilan, harakat esa, absalyutligi bilan ajralib turadi. Fe'l sememasidagi logik subyekt holati qanchalik davom etmasin, qanchalik real turlicha, "prespektivali" bo'lmasin u nisbiydir. Uning nisbiyligi absalyutdir. Chunki, har qanday holat asosida harakat mavjuddir. Ammo bu harakat ko'zga real tashlanmasligi hamda yashirinligi bilan xarakterlanadi. Demak, holat fe'llarida ifodalangan holat, holat akti, holat o'zgarishi logik subyektning ichki holat yuz bergan holat akti, holat o'zgarishi logik subyekt harakat natijasi sanaladi. Tilshunos Sh.Balli

ta'kidlaganidek, "holat bir tomondan bevosita harakat ketidan ergashuvchi sifatida idrok qilinadi. Aytilganlardan kelib chiqib, holat fe'li reallashgan holat harakatga nisbatan passiv akt bo'lsa-da, uni ham protses sifatida tushunish logik filosofik to'g'ri bo'ladi. Shunga ko'ra manbalarda 'ayэд mustaqil so'z turkumi bo'lib, predmetning harakat va holatini protses sifatida ifodalovchi so'zlarni birlashtiradi deyiladi.

Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarga shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalovchi holat fe'llari nutqda aktiv ishlatilishi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi. Holat fe'llari sememasining arxisemasi holat fe'llari holat fe'llarini bir makrosistemaga biriktiradi. Chunki, arxisema xarakteridagi holat fe'llarining semantic maydoni yuzaga keladi. Demak, arxisema leksemasining mohiyatini ifodalaydi¹.

O'zbek tilidagi holat fe'llari arxisemadan boshqa differensial semalari bilan ham xarakterlanadi. Bu tabiiy mantiqiy chunki, holat fe'llari muayyan differensial semalarga ko'ra nutqda konkret denotative ma'noga umumiyliklar, nisbiy ajratishga ega bo'ladi².

Differensial semalar holat fe'llarining avtonomligini ko'rsatuvchi semantic belgi sifatida xizmat qiladi. Ularda leksema sememasining o'ziga xos belgisi emotsional, exspressiv ottenkasi, nutqiy xoslanishi aks etadi. O'zlik nisbatli holat fe'llarining ham agens valentligiga ega bo'ladi.

v) Yozuvchi A.Qodiriy ijodi va uning "Mehrobdan chayon" romanining o'rganilishi haqida:

O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri A.Qodiriy 1894- yil 10-aprelida Toshkent shahrida tug'ilaadi.

„Har holda bemovridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguvchi bir oilada... tug'ilg'anman"-deydi. U o'z tarjimai holida, - Yoshim

¹

² Расулов Р. Образли ҳолат феъллари. Тошкент. 1982. 5-бет.

to'qqiz-o'nlarga borgandan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaxtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jaynim o'zi bir savdogar kishi bo'lib, o'zicha yozuv- chizuv bilaturg'on odang'a muhtoj edi.

Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabga yubordi... 1912-yilda maktab bialn savdo qiluvchi, bir kishig'a yilig'a 50 so'm barobariga prikarchik bo'lib kirdim... Shu miyonalardan biror vosita bilan tatarlardan chiqadurg'on gazetalarni o'qub, dunyoda gazeta borlig'iga imon keltirdim.

1913-yilda o'zbekcha „Sadoi Turkiston“, „Samarqand“, „Oina“ gazetalari chiqa boshlag'ach, menga shularga gap yozib turish fikri uyg'ondi...1913- yilda chiqqan „Padarkush“ ta'sirida „Baxtsiz kuyov“ degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim (1915). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoya va romanlarga taqlidan „Javonbor“ otliq hikoyachini yozib, nashr topmog'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'andan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim...

1918-yil boshlarida eski shahar oriq komiteti boylar qo'lidan olinib, komitetning raisligiga o'rtoq Sultonxo'ja Qosimxo'jayev tayin qiling'an edi. Va men o'zbekcha sarkotiblig'iga kirdim.1919-yilning avvallarida oriq komitetinin ismidan chiqarlimoqchi bo'lgan “Oziq ishlari” gazetasiga muharrir bo'lib tayinlandim... shu kungacha sho'ro idoralarida qilg'on xizmatlarimni birma-bir sanab o'tirishim uzoqqa cho'ziladurg'on bo'lg'anlikdan, muyndan keyin muassasa ismlarinigina atash bilan kifoyalanaman: “Rosto” devoriy gaztasiga muxbir ищэдшиб to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yeti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim. Shu orada “Mushtum” jurnalining muallifi va tahririyat a'zosi bo'lib, “Ishtirokiyun”, “qizil bayroq”gazetalarida satrudnuk... bo'lib ishladim. Xulosa boshqalarning xizmat daftari bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan

ravsjandir... Ishchi dehqonlar yolg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmalar..."

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913-1914 yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratadi. Uning "Ahvolimiz", "Millatimga", "To'y" (1914-1915) "oyna" jurnalida bosilib chiqilgan edi. O'z millatini ma'rifatga chiqaradi. Ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. Uning "baxtsiz kuyov" (1915) nomli fojiasi, "Juvonboz" (1915), "Uloqda" (1916) kabi hikoyalarda ham o'z xalqini savodli, bilimli madabiyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1914-yil A.Qodiriy Moskvaga borib Jurnalistlar institutida tahsil oladi. Moskvadan qaytin "Mushtum" jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshlaydi. Uning "Toshpo'lat tajang nima deydi" va "Kalvak mahzumning xotira daftaridan" turkumidagi bsatirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosila boradi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «Mehroban chayon» romani uchun material yig'ishga kirishadi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshladi. 1925-1926-yillarda «Mehroban chayon» uch bo'lim holida *лшеци ищэдши* nashr etildi.

1928-yilda ikkinchi tarixiy roman "Mehrobdan chayon" nashrdan chiqdi.

1934-yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzusiga bag'ishlangan "Obid ketmon" qissasini yaratdi. Undan tashqari u Gogolning "Uylanish", Chexovning "Olchazor" va boshqa g'arb yozuvchilarining satirik hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qildi.

Abdulla Qodiriy 1934 yilda bo'lib o'tan Moskvadagi Butunittifoq yozuvchilarining birinchi quruloyida qatnashdi. U "Amir Umarxonning kanizagi", "Nomoz o'g'ri", "Dahshat" kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrida qamoqqa olinadi. "menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday

jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni berib turaman..." Abdulla Qodiriy 1938-yilning 4 шленфик kunida Toshkentda otiladi. Uning asarlari XX asrdan so'ng, 1956 yildan boshlab yangidan тфырк etila boshladi. 1990-yilda Respublika prezidenti farmoni bilan A.Qodiriy nomidagi Respublika davlat mukofoti tasis etildi. 1991-yilda esa A.Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oily bilimgohlarda eng bilimdon talabalarga Abdulla Qodiriy nomidagi nafaqa beriladi. Uning yuz yillik tavalludi (1994) ga yeti jildlik to'la asarlari тфырк etildi¹.

O'zbek adabiyoti XX asrda ko'pgina yangi realistic adabiyot namunalari, yangi janrlar bilan boyidi. Shular orasida eng muhimi o'zbek romannavislik maktabinig paydo bo'lishi va kamol topishidir. O'zbek romanchiligi Abdulla Qodiriy romanlari bilan birga tug'ildi. "O'tkab kunlar" ilk bor e'lon qilinganidan keyin yuzlab romanlar paydo bo'ldi. Lekin, baribir, Abdulla Qodiriy asarlari o'zbek romannavisligi tarixida sira eskirmaydigan mangu kitoblar bo'lib qoldi.

Shubhasiz, Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishda o'zbek adabiyotshunoslari bayrodor bo'ldilar. Ular rasmiy siyosatning taqibiga qaramay, ulug' adib ijodiga nisbatan xolisona munosabatda bo'lishga urindilar. Qodiriy ustidan "lanat tamg'asi"ning olinishi bilan esa talaygina dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, risolalar paydo bo'ldi. Ular Abdulla Qodiriy romanlarining o'zbek nasri taraqqiyotida tutgan o'rni, adib mahorati teran tadqiq etildi va etilmoqda.

Abdulla Qodiriy eng avvalo, milli adib sifatida o'zbek milliy romannavislik maktabining asoschisi sifatida tarixga kirdi.

"Xalqchilik, - deb yozgan edi. V.G.Belinskiy, – davrimiz estetikasining ibtidosi va intihosidir... Shoir sazovor bo'lishi muhin bo'lgan ens oily maqtov "xalqchil" degan sehrii sifatlashda ищэдшиб romandoshlar yoxud avlodlar uni

shunday baland unvon bilangina izza qilishlari mumkin. Xalqchil doston, xalqchil asar ifodasi endilikda ijobiy, ajoyibm buyuk, boqiy asar so'zlari o'rnida qo'llanadi"¹.

V.G.belinskiy bu fikrga "xalqchilik" so'zi milliylik ma'nosida ishlatilganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Abdulla Qodiriyning "Mehroban chayon" asarida milliy mazmun bilan milliy shakl millatning yozuvchilik istedodi tufayli o'zaro birlashib, tutashib, yaxlit bir hodisani vujudga keltiradi. Bu yaxlitlik esa, ushbu zaminning milliy asari sifatidagi yutug'ini ta'minlaydi.

Abdulla Qodiriyning romanlari milliy o'ziga xosligini ta'minlashga qaratilgan badiiy mahorati keyinchalik Oybek, G'afur G'ulom, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Odil Yoqubov, P.Qodirov, O'.Hoshimov, X.Sultonov, T.Mutod singari yozuvchilar uchun badiiy maktab vazifasini o'tadi. Sovet hokimiyati yillarida milli yadabiyotlarni sotsiolistik realism metodi mezonlari asosida baynalminalashtirish siyosati yurgizilganligiga qaramay, o'zbek adabiyotining milliy madaniy sohasi sifatida rivojlanishda davom etagining sirlaridan biri ham xussi shundadir.

² «Mehroban chayon» romanining sokin epik tasviri milliy tariximizning qator yirik voqea va hodisalarini hayotiy dalilar, maishiy va psixologik tavsilotlar asosida o'z ichiga qamrab oladi va ularga o'zbek xalq hayotining keng manzarasi, uning o'ziga xos xarakteri madaniyati, rasm-rusumlari, urf-odatlarini aks etadi.

Abdulla Qodiriyning xalq hayoti chuqur bo'lishi xarakteridagi milliy xarakter yaratishda xalq tili va og'zaki ijodi chashmasidan samarali foydalanishi yozuvchining teran ruhiy tasvir madaniyati, asar tilining obrazligi va milliylikiga erishish "Mehrobdan chayon" romanining milliy nafosatini taminlagan muhim omillardandir.

1

2

«Mehroban chayon» XX asr o'zbek adabiyoti tarixiy taraqqiyotida g'oyat noyob badiiy estetik hodisa bo'lib, u nafaqat Abdulla Qodiriy ijodida, balki, butun markaziy Osiyo xalqlari badiiy tafakkuri rivojida realistic nasriy epic rivoya hamda epic obraz yaratish tizimini boshlab berganligi bilan ham buyuk ahamiyatga ega.

– **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi va vazifalari.**

g) Ma'lumki, tildagi har bir so'z boshqa so'zlarga nisbatan alohida, mustaqil birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistrtema sifatida namoyon bo'ladi. Tilning lug'at boyligini sistema sifatida o'rganish esa so'zni slohida birlik sifatida emas, balki butunning tarkibiy, o'zaro bog'loq. Ajralmas birlik butunning tarkibiy, o'zaro bog'liq, ajralmas, birlik sifatida o'rganishni taqozo etadi. Til leksikasining tadqiq etishga bunday yondashish o'z vaqtida 1985-yilda akademik M.M.Pakrovskiy tomonidan taklif etilgan edi. Olim o'z doktorlik dissertatsiyasida "Muayyan so'zning ma'nolari tarixi, uni yondosh, ma'nodosh so'zlar bilan o'zaro muvofiqligida o'zgargandagina aniqlanadi, –degan edi¹. Tilning lug'aviy boyligini tizim sifatida o'rganishda I.Tiir va I.Veysberglar tomonidan ishlab chiqilgan "semantic leksik maydon nazaryasi" muhim adamiyatga ega bo'ladi keyinchalik bu nazaryaga I.Ispen va V.Porsig kabi olimlar tomonidan ayrim aniqliklar kiritildi. Rus tilshunosligida O.S.Axmanova, A.I.Smrinskiy, V.V.Vinogradov, A.N.Amosoba, V.G.Gak, K.A.Levkovskiy, V.A.Zviginsev, D.N.Shmelev singari mashhur olimlar system leksikologiya rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar².

Semaseologiya izlanishlarda so'zlar muayyan leksik semantic guruh LSGlarga ajratiladi. "Ularning struktural etimologik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan birikuvchinlik imkoniyatlari ham inobatga olinadi.

Har bir LSG tarkibiga kiruvchi so'zlar bir markaziy yadro so'z atrofida birlashadi. Boshqa so'zlardan esa, anashu markaziy dominant so'z ma'nosi yanada konkretlashadi, uning differensial va integral semalariga aniqliklar kiritiladi. O'zbek tilshunosligida so'zlarni ana shunday usulda component tahlil qilishga Sh. Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, R.Yunusov, I.Abdurahmonov kabi qator olimlar

1

2

munosib hissa qo'shganlar. Ammo H.Ne'matov va R.Rasulovlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "O'zbek tili leksemasining mazmun guruhleri yoki LSGlar system usulda yetarlicha o'rganilmagan. Faqat nutq fe'llari I.Qo'chqortoyev tadqiqotlarida holat fe'llari R.Rasulov ishlarida, qavm-qarindoshlik nomlari M.Narziyeva, baholash sifatleri tana a'zolari nomlari B.Jo'rayev, ko'lam sifatleri I.Abdurahmonov ishlarida zamonaviy uslarda tahlil etiladi. Ammo LSGlarni ajratish nazaryasi o'zbek tilshunosligida hali to'la ishlab chiqilmagan¹. Biz ana shu fikrlardan лудши chiqib, "kulgi" holatini ifodalovchi fe'llarning o'zbek tilida keng tarqalgan LSGlaridan biri ruhiy holat ifodalovchi xususiyatlarini o'rganishga doir fikr-mulohazalarimizni ushbu malakaviy bitiruv ishida bildirmoqchimiz.

"Kulgi" holatini ifodalovchi leksemalar o'z semantic tabiatidan kelib chiqib, kishilarning ruhiy olatini ifodalashga xizmat qiladi. Hamda bunday fe'llar alohida LSGlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan kishi obrazining turli xil ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va tashkil topishida o'tgan asrning 20-30-yillari alohida o'rin tutadi. Tarixiy an'analar va aql bovar qilmas yangiliklar ta'sirida ozib voyaga yetgan o'zbek ziyolilari ilm-ma'rifat orqali xalqni uyqudan uyg'otish, milliy o'zlikni tiklash ishiga zo'r berganligi hammamizga ma'lum.

Abdulla Qodiriy ijodi hamma vaqt tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Bajarilgan ishlarning aksariyati adabiyoshunoslik yo'nalishida bo'lib, asosan, yozuvchining mahorati, romanning badiiy xususiyatlari va tahliliga bag'ishlanadi. "Mehrobdan chayon" romanining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar juda o'z bo'lib, ular ham asadagi frzeologizmlar va maktublarning lug'aviy ma'noviy hamda uslubiy tomonlarini ochib berishga qaratiladi. Malakaviy bitiruv ishining asosiy maqadi "Mehrobdan chayon" romanini lingvistik tadqiq etish, ana shu asosida A.Qodiriyning badiiy til

mahoratini ochib berish, adibning hozirgi o'zbek adabiy itlini shakllanishidagi xizmatlarini yoritishdan iborat.

XX asrning boshlariga kelib ijtimoiy hayotning barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar, evrilishlar ro'y bera boshladi. "Mehrobdan chayon" romani ana shu o'zgarishlarni o'zida yorqin namoyon qiladi. Unda o'tgan asrning boshlaridagi sotsialistik jarayonning ta'siri sezilib turadi.

Abdulla Qodiriy romani tilidagi turli vosita va usullar bilan ifodalangan xalqchilik ruhining kuchliligi "Chig'atoy gurungi"ning o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan belgilanadi. Asarda qo'llanilgan xalq tili xalq ruhiga mos so'z va iboralar kitobxonga badiiy zavq beradi.

O'zbek tili taraqqiyotida ham 20-30-yillar holati eski o'zbek tilidan hozirgi o'zbek tiliga o'tish davridagi oraliq holatni ifodalaydi. Bu davrda eski o'zbek tiliga xos belgilarning saqlanishi bilan birga hozirgi o'zbek adabiy tili meyyorlarining shakllanish jarayonini ham namoyon qiladi. Xuddi shu jarayon Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida o'z ifodasini topgan. "Mehrobdan chayon" romani tili bunday nutqda so'z qo'llash jihatdan o'ziga xos ibrat maktabidir. A.Qodiriy so'zlashuv nutqining leksik va grammatik boyliklarni o'rganib ularda adabiy tilda ustalik bilan foydalandi.

Adibning leksik birliklar, tasviroy ifoda vositalaridan unumli va o'rinli qo'llashi uning tildagi aksariyat so'larni semantic qurilishi va konotativ ma'nolarini teran anglashdir. Ular yordamida yozuvchi hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantira olishga muvofiq bo'lgan.

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida davr ruhini aks etirishda, qahramonlar tilini individuallashtirishda ularning ruhiy kechinma kasb-kori va ma'naviy darajasini ko'rsatishda, asosan personaj nutqida qisman muallif nutqida bir necha g'oyaviy-badiiy maqsadda tilning maxsus resurslari (neologizm, dialektizm, vulgarizm, iboralar, frazeologik birliklar)dan foydalanadi.

I BOB

O'zbek tilida "kulgi" amalini ifodalovchi leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari

1. Kulgi mamalini balan ovoz bilan kechishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional-semantik xususiyatlari

Qizlar qiyqirishib kuldilar ("Mehrobdan chayon" 123-bet). Bu misolda qo'llangan kulgi fe'lidan oldingi qiyqirishib so'zi baland ovozda, bor ovoz bilan kulgiligidan dalolat beradi. Kuchli kulgi ko'tarildi ("Mehrobdan chayon" 131-bet). Bu gapgagi kuchli so'zi harakatning kuchli tarzda ifodalanishini bayon qilish, aks ettirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kulgi ko'tarildi ayniqsa, shayxulislom yonida o'tirg'an domlalar qattiq kuldilar ("Mehrobdan chayon" 123-bet). Keltirilgan bu misolda kulgi fe'lidan oldin qo'llangan qattiq so'zi harakatning juda kuchli tarzda ifodalanishini bayon qiladi. Qattiq so'zi o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda "baland ovoz bila" ma'nosida qo'llanganligi bilan ham xarakterlanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham kuchli kulmoq, qattiq kulmoq, kuch darajasi yuqori, kuch jihatdan ustunligini namoyon etmoq ustun kelmoq ma'nolarida ishlatiladi¹.

Ra'no butun tovushini qo'yib kulib yubordi ("Mehrobdan chayon" 29-bet). Bu misoldagi butun tovushini qo'yib kulmo so'zi baland ovozda zavqlanib, baqirib kulmoq ma'nosida kelgan. Bu so'zdan Ra'no batarroq kulib yubordi. ("Mehrobdan chayon" 81-bet). Bu misoldagi battaroq so'zi o'zini tiyolmay kulish, yanada baland ovoz bilan kulish ma'nolarini anglatadi. Ammo bu kulish uning boyagi kulgilaridan tamoman boshqa, ya'ni baxtiyorlik kulgisi edi. ("Mehrobdan chayon" 92-bet). Inson baxtiyor bo'lganda chin ko'ngildan kulib, chin ko'ngildan kulganda kulgi ovozlari yangraydi. Bu misoldagi baxtiyor kulgu ham baland ovozda kulganligidan dalolat beradi ("Mehrobdan chayon" 95-bet). Bu suldan ko'rinib turibdiki, kulgi harakatining kuchli tarzda ifodalanganligini bildiradi. Hamma kulib yubordi ("Mehrobdan chayon" 128-bet). Ma'lumki, hamma birgalikda kulganda, kulgilar birlashib baland ovoz hosil qiladi. Ko'rpani bir ochib qaragan gulshan ham

bu holdan ichi qotib kuldi. (“Mehrobdan chayon” 128-bet). Bu misolda keltirilgan ichi qotib soʻzi (feʻli) baland ovozda kulishib ovozi chimay qolib, ichi qotib qolishga sabab boʻladi.

Qizlar yana shaqqilashib kuldilar (“Mehrobdan chayon” 129-bet). Shaqqildoq soʻzi ‘shaq-shaq’, “shaqil-shaqil” etgan ovoz chiqarib kulmoq degan maʼnoda qoʻllanadi. Tuhfa birdan xoxolab kulib yubordi (“Mehrobdan chayon” 129-bet). Xoxoamoq soʻzi qattiq ovoz chiqarib, zavq biln kulmoq maʼnosini ifodalaydi. Bu soʻz Anvar va Nigor oyimlarni tovush chiqarib kelishga majbur etdi. (“Mehrobdan chayon” 142-bet). Tovush chiqarib kelmoq – baland ovozda kelish oʻzini tutolmay maʼnosini bildiradi. Safar boʻzchi birdan kulib yubordi (“Mehrobdan chayon” 175-bet). Bu misoldagi birdan soʻzi ham ovoz hiqarib, kutilmagan holda kulib yuborish maʼnosini anglatadi.

Raʼnoga qoʻshilishib kulishdi (“Mehrobdan chayon” 182-bet). Bu misoldagi qoʻshilishib soʻzi bir kishiga ikkinchi kishi qoʻshilishib kulsa, maʼlum bir ovoz yuzaga keladi. Kulgidan raʼnoning koʻzi yoshlanib oʻsiq kiprigi juftlandi, kulgi va oʻchoq harorati bilan ikki yuzi qizib olmaga aylanib latif burni ustida marvarid donalari hosil boʻldi (“Mehrobdan chayon” 182-bet). Bu misoldagi kuch soʻzi ham kuch darajasi yuqori, kuch jihatdan ustunligini namoyon etmoq, boshqalarga nisbatan baland kulmoq maʼnolarini anglatadi. Oʻzini tutolmay kulish ham baland ovozda zavqlanib mazza qilib kulish maʼnosida izohlangan. Sultonali uning hangomasiga kuchanib kuldi, ammo yana ogʻiz ochishga majolsiz kabi oʻtirib qoldi. (“Mehrobdan chayon” 184-bet). Kuchlanmoq feʻli kuchga egalik, kuch darajasi yuqorilik, boshqalardan baland kelish degan maʼnolarni bildiradi. Sultonali kelishi bilan anvar kitobni yonigʻa olib qoʻydi va kuchlangandek iljaydi (“Mehrobdan chayon” 206-bet). Kabi misollar ham shu jumaladandir.

2. “Mehrobdan chayon” romanida “kulgi” amalini ovozsiz mayin ovozda kulishini bildiruvchi leksik vositalarning funksional semantic xususiyatlari.

Yolg'aning qursin, Ra'no dedi. Anvar kulimsib qanday mehmon? (“Mehrobdan chayon” 127-bet). – orqa “insi” qo'shimchasi fe'llarga qo'shilib, shu fe'ldan ifodalanayotgan fe'llarning kuchsiz tarzda ifodalanayotganligini bildiradi. Ana shu holatga ko'ra kulmoq fe'li tarkibiga qo'shilgan imsimoq qo'shimchasini quyidagi misolda ham ko'rishimiz mumkin. Anvar o'ylanib, yana kulimsidi (“Mehrobdan chayon” 27-bet); Anvar o'li laganda ekan, kulimsib qo'ydi (“Mehrobdan chayon” 33-bet). Maknunning keying jumlasini Anvarni kulimsitdi (“Mehrobdan chayon” 38-bet). Nigor oyim ham kulimsidi (“Mehrobdan chayon” 81-bet); Ra'no kulimsib yer ostidan anvarga qaradi va qo'lidagi xarxasha qila boshlagan bolani ovitish uchun tebrandi. (“Mehrobdan chayon” 28-bet); Ra'no kelar ekan, o'pkalik ko'z bilan Anvarga kulimsib qarar edi. (“Mehrobdan chayon” 56-bet). Kabi misollarda qo'llangan kulimsimoq fe'li kulgi amalini ovozsiz mayin ohangda kechishini belgilovchi vosita sifatida qo'llangan. Kulimsimoq, yuz, ko'z holatlari yoki mayin ohang bilan xursandligini, zavq shavqni ifoda etmo, muloyim kulmoq degan ma'nolarni anglatadi. Mohlar oyim kulimsidi. – Agar o'lmasam shu do'ndiq qizimni berib, anvarni o'zima kuyov qilaman (“Mehrobdan chayon” 44-bet). Solih Maxdum kulimsigan kuyida dahlizga kirib bordi va oyog'ini kafshiga uzatdi (“Mehrobdan chayon” 5-bet); Anvar kulimsidi (“Mehrobdan chayon” 35-bet). Oyog' uchlarini sarig' atlas ko'ylagi bilan yashirdi (“Mehrobdan chayon” 94-bet); Ammo uchunchi kalimaga o'tganda qalamini qo'lida o'ynatib qoldi va boyag'idek yonidagiga kulimsib qaradi (“Mehrobdan chayon” 96-bet). Ra'no yozuvni Anvarning oldig'a tashlab qizargan va kulimsigan holatda chopib gullar yoniga ketdi. (“Mehrobdan chayon” 97-bet); o'ng'aysizlikda qolgan Ra'no xijolat aralash Anvarga kulimsib bosh ko'tardi (“Mehrobdan chayon” 99-bet). – o'zing o'ynab kulib yuribsanmi? (“Mehrobdan chayon” 120-bet); ikkinchi o'nning aylanishi ham shu yo'sin kulgi berdi (“Mehrobdan chayon” 123-bet). Qizlar kulishar edilar (“Mehrobdan chayon” 123-bet). Hamma kulishi yubordi

(“Mehrobdan chayon” 128-bet); Gulshan har chan o’zini ushlasa ham yana qizlarning kulgisiga tortildi. (“Mehrobdan chayon” 127-bet); Yana kulgi ko’tarildi (“Mehrobdan chayon” 128-bet); – Eski dard, - dedi allohim, qizlar piqillashib yubordilar (“Mehrobdan chayon” 130-bet); Tuxfa bundan xoxolab yubordi (“Mehrobdan chayon” 150-bet); uchovi barobar qulliq qildilar, kulgi boshlandi (“Mehrobdan chayon” 151-bet); uchchovi ham fotihaga yuz siypalagan edilar yana atrofni qur etgan kulgi bosti (“Mehrobdan chayon” 158-bet); Mulla Abdurahmon ularning kinoyasi mazmuniga tushunibmi, yoki tushunmasdanmi har holda bir iljayib qo’yar edi. (“Mehrobdan chayon” 157-bet); Anvar iljayib qo’ydi (“Mehrobdan chayon” 160-bet); Toyir alam ham sizga o’xshaydi deb kuldi. (“Mehrobdan chayon” 160-bet); Mulla Abdurahmon ohista bosh ko’tarib kulimsidi (“Mehrobdan chayon” 156-bet); Ra’no kulimsib o’zini eshik panasiga oldi (“Mehrobdan chayon” 179-bet); Anvar kulimsib Sultonalining yuziga qaradi (“Mehrobdan chayon” 191-bet); So’ngra Anvar muftilar tomong’a kulimsib, Sultonalining gaplariga ahamiyat bermaslikka ishorat qildi. (“Mehrobdan chayon” 195-bet); Sultolali kulimsidi Ammo o’zida qayg’usizlik tusida qizarish bor edi (“Mehrobdan chayon” 206-bet); Jadid bilan Qobil uning jiddiyatidan kulimsiradilar (“Mehrobdan chayon” 238-bet); Anvar bosh chayqab kulimsiradi (“Mehrobdan chayon” 241-bet); kabi misollarni keltirish mumkin.

Kulimsiramoq fe’li ham miyig’ida kulmoq, iljaymoq yok kulgi amalini ovozsiz mayin kulishni bildirish uchun xizmat qiladi. Ra’no yana yo’lda to’xtab, kulimsiragan holda anvarga aradi (“Mehrobdan chayon” 59-bet); Anvar javob berish o’rniga kulimsirab qo’ydi va joyiga o’ltirib rizalar ko’ra boshladi. (“Mehrobdan chayon” 78-bet); Ra’no kulimsirab chetga qaradi (“Mehrobdan chayon” 80-bet); Anvar oshiq va o’yin kulgini bir daqiqa ham qo’yib turolmag’an shu vaziyatga kulimsiragan kuyi amrga qarab turdi, ham o’zining rolini buzmadi (“Mehrobdan chayon” 95-bet); Ra’nonig ham ko’zi to’qnashib bir oz bir birlariga kulimsiragan holda tikilishdilar (“Mehrobdan chayon” 96-bet); Ra’no yozuvini Anvarning oldig’a tashlab qizarg’an va kulimsiragan holda chopib gullar yonig’a ketdi (“Mehrobdan chayon” 97-bet); Yigitning jiddiyati kulimsirashga mubaddal

bo'lib, havodagi qilichini qaytarib g'ilofiga soldi ("Mehrobdan chayon" 109-bet); shahzoda javobsiz kulimsirab, Gulshanga bir oz qarab turdida, ichkariga kirib ketdi. ("Mehrobdan chayon" 111-bet); Ishlaringiz qanday? – dedi kulimsirab og'acha oyim ("Mehrobdan chayon" 114-bet); Gulshan bir oz javobsiz kulimsirab turdi ("Mehrobdan chayon" 127-bet); so'zni joyida ishlatish uchun bo'lsa kerak, makdunning o'zi ham kulimsiradi. ("Mehrobdan chayon" 140-bet); Anvar kulimsiragan holda o'ylab qoldi ("Mehrobdan chayon" 96-bet); Sultonali kulimsirab, bir-ikki qayta muftilarga qarab oldi. ("Mehrobdan chayon" 193-bet); kabilar.

Tabassum qilmoq – fe'lining ham "kulgi" amalini ovozsiz mayin ohangda kelishini biliruvchi leksik vosita hisoblanadi. Bu fe'ning analitik shaklidir. Mahdum mashqxonadan eliqib ichkari kirishga odim uzgan holatda darvozadan sipoli kiyimda birk kishi kirdi va maxdumga tabassum bilan salom berib, yuqorig'a yurib keldi ("Mehrobdan chayon" 21-bet); va tabassum aralash "hormang" deid ("Mehrobdan chayon" 27-bet); Ra'no tabassum bilan javob berdi va unda bir oz qizarish belgisi bor edi. ("Mehrobdan chayon" 94-bet); Ra'no kanizlar kabi bosh bukib "hozirman" ishorasini berdi va tabassumga mayil jodu ko'zlari bilan Anvarga ohista bosh ko'tarib qatadi. ("Mehrobdan chayon" 95-bet); Ra'no tabassum ichida yana yuzini tutib berdi ("Mehrobdan chayon" 243-bet).

Tabassum qilmoq fe'li "ovoz chiqarmay lablarini yoyib,

Ko'rimsiz kulimsiramoq. Ma'nosini anglatadi. Shuning uchun yuqoridagi barcha misollarni ikkinchi semantic guruhga kiritish mumkin. O'zbek tilida iljaymoq fe'li ham ovoz chiqarmay, lab va ko'z harakati bilan kulgi ifoda etmoq, miyig'ida kulmoq ma'nosini anglatadi. Quyidagi misollardan shu leksik vositalar qo'llangan. Tabassum qilmoq ot+ko'makchi fe'l modali asosida shakllangan fe'ning analitik formasi bo'lib, bu fe'l kulgi amalini o'rtacha savyada muayyan tavoze bilan ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Quyida biz keltirgan misollar ham yig'lamoq fe'li mayin ohangda ifodalash vositasi sifatida namoyon bo'ladi: Safar bo'zchi ham Maxdumga bir oz tikilib turgach, iljaydi ("Mehrobdan chayon" 83-bet); Amirimga muvofiqmi? Dedi Anvar va

Ra'nonin ko'ziga to'g'ri qrab iljaydi: shomdan keyin ular bir-biriga qarashib iljayishdilar ("Mehrobdan chayon" 83-bet); Mulla Abdurahmon ularning kinoyasi mazmunga tushunibmi, yok tushunmasdanmi – har holda bir iljayib qo'yar edi. ("Mehrobdan chayon" 157-bet); Sfar bo'zchi mokisi qo'lida o'zicha iljaydi, yana bir-ikki oyoq bosgandan keyin, do'konxona eshigi ochildi ("Mehrobdan chayon" 169-bet); Safar bo'zchi Mamatqulg'a qarab iljaydi ("Mehrobdan chayon" 170-bet); Ra'no sekin iljayib Anvar tomon qaradi ("Mehrobdan chayon" 181-bet); Ra'no o'choq yoniga cho'nqayib olov jo'nashtirar ekan, yer ostidan Anvarga qarab iljaydi ("Mehrobdan chayon" 181-bet); O'zini el so'rab turg'an yosh xon yoniga kelib, iljaydi ("Mehrobdan chayon" 189-bet); Anvar o'pkalik iljayib, undan choy ichkan, ichmaganligini so'radi ("Mehrobdan chayon" 191-bet); Sultonali gapni Anvarning ko'nglidan chiqarishga tushib haligidek, yupatishlarni og'zidan qo'ymas, eshitguvi esa qisqag'ina jumla bilan uni fikriga qo'shilar, yoki iljayib tasdiq ishorasini bildirar edi. ("Mehrobdan chayon" 193-bet); Ra'o qayg'ularini ozaytirgandek, kuldi, o'ziga yarim jiddiy tikilib turgan yigitcha javobdan iljaydi. ("Mehrobdan chayon" 197-bet); Sultonali kirishi bilan Anvar kitobni yonig'a olib qo'ydi va kulimsiragandek iljaydi. ("Mehrobdan chayon" 204-bet); Anvar kuchanib iljaydi ("Mehrobdan chayon" 206-bet); Mulla Abdurahmon tamka yoniga kelib o'ltirdi va yer ostidan shahodat muftiga qarab iljaydi. ("Mehrobdan chayon" 221-bet); Mulla Abdurahmon iljaydi va Shahodat mufti davom etdi. ("Mehrobdan chayon" 222-bet); Abdurahmon yerga qaragan holda iljaydi ("Mehrobdan chayon" 223-bet); Abdurahmon yana iljayib bosh ko'tardi. ("Mehrobdan chayon" 224-bet); Anvar iljaydi ("Mehrobdan chayon" 227-bet); Sharif bilan qobilga ikki qo'lini cho'zib, ular ikkisi ham iljayish ko'yi qo'llarini burdilar ("Mehrobdan chayon" 248-bet); kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lganidek, Mehrobdan chayon romanida ham kulgi amalini ba'zan kuchli his-hayajon bilan kulish holati ifodalanadi.

Buning uchun tilimizda maxsus lug'aviy visitalar ham mavjud. Masalan:

Kulgi amalini kuchli his-hayajon bilan kelishini bildiradigan leksik vositalarning funksional semantik xususiyatlari.

Qizlar yana shaqqilashib kulishdi (Mehrobdan chayon 129). Shaqillashib fe'li shaq-shaq etmoq, shaqir-shaqir etmoqovoz chiqarib kulmoq ma'nolarini bildiradi; Sultonali uning hangomasiga kulimsirab keldi. (Mehrobdan chayon 184).

Gur etmoq fe'li "gur" etgan ovoz chiqarib kulish, degan ma'noni anglatadi: Yan gur etib kulib yubordilar (Mehrobdan chayon 147).; uchchovi ham Fotimaga yuz siypalashgan edilar, yana atofini gur etgan kulgi boshlandi (Mehrobdan chayon 147).; yana gur etgan kulgi bog'ni tutib ketdi. (Mehrobdan chayon 148).

Piqqillab kulib yuborish ham kulgining his-hayjon bilan kulishini bildiradi:

Ko'rpa ichida qizlarning piqirlashi eshitilsa ham boyagi to'polon bitgandek bo'ldi. (Mehrobdan chayon 129). Eski dard dedi allakim qizlar piqillashib yubordilar (Mehrobdan chayon 129).

Shunday qilib o'zbek tilida kulgi amalini ifodalovchi leksik vositalar juda xilma-xil bo'lib ular Mehrobdan chayon matnida juda xilma-xil funksional uslubiy xususiyatlar ifodalsh uchun xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki kulgi amalini ifodalovchi leksik vositalarni quyidagicha uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- a) Kulgi amalini baland ovoz bilan kulish hollari leksik vositalari (baqirib kulmoq).
- b) Kulgi amalini oozsiz mayin ohangda kulishni bildiruvchi lug'aviy vositalar (Kulimsiramoq, iljaymoq).
- c) Kulgi amalini kuchli his-hayajon bilan hosil bo'luvchi lug'aviy vositalar (shaqqillab kulmo, piqirlab kulmo).

Keltirilgan uch guruhdagi lug'aviy vositalardan faqat ikki guruhiga mansub kulgi amalini ovozsiz mayin ohangda kulishi lug'aviy vositalar biz

o'rgangan "Mehrobdan chayon" matnida boshqa guruhdagi lug'aviy vositalarga nisbatan ancha ko'p. bu esa yozuvchining kulgi amalini mayin ovoz bilan berishga ko'proq mayil ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga "Mehrobdan chayon" romani matnida kulgi amalini ifodalashda birikmalar va frazeologizmlar ham ishtirok etadi. Bu masalani o'rganish malakaviy bitiruv ishining keying bobining obekti hisoblanadi.

II bob

1. Muallif nutqi

Roman voqyealarn uchinchi shaxs tilndan hikoya qilingan. Muallif voqea-hodisaga aralashmaydi, biroq unga bazan o'zning munosabatini bildirib ketishdan ham tortinmaydi. Yozuvchi va o'quvchi munosabatlari bevosita muloqot ko'rinishida olib boriladi. Bu javoblar ba'zai to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat shaklida.

Muallif nutqida singarmonizm hodisasidan asar-tiliga jonli nutq xususiyatlarini singdirish uchun, aniqrog'i, jonli til ohang saqlanishi uchun imkon beradigan darajadagina me'yor bilan qo'llanilgan. "ga"ning o'rnida "ga", "ka" ning o'rikda "qa", "gina" ning o'rnida "g'ina", "o'g'il" ning o'rnida "o'g'ul", "o'quvchi" o'rnida "o'qig'uvchi", "to'ng'ich" o'rnida "to'ng'uch", "qattiq" o'rnida "qattig'" va hokazo qo'shimcha hamda so'zlarning ishlatilishi asarga, jumladan, muallif nutqiga takrorlanmas joziba baxsh etgan.

Muallif nutqinini xususiyatlaridan yana biri XX asr boshlaridagi o'zbek ziyolisining nutqini xarakterlaydigan arxaizmlardan foydalapishda ko'rnnadi.

Umuman, har qaiday asarning voqyea-hodisalari uchta subyektnnng nuqtai nazarida sodir bo'ladi. Birinchi subyekt voqyealarning ishtirokchilari bo'lmish qahramonlardir. Ikkinchi subyekt qahramoilarga teskari tomonda turgan o'quvchi-kitobxoidir. Qahramonlar va o'quvchi o'rtasida uchinchi subyekt - muallif turadi.

Muallif o'quvchidan farqli o'laroq, voqyeaniig butun tafsilotlardan avval boshdan xabardor. AYNi chog'da, u voqyeani qahramonlar qanday ko'rayotganini ham yozib borishga majbur. Unda voqyealar jarayoning o'zgartish huquqi bor. U voqyealarni o'quvchi to'g'ri tushunishn uchun izohlab beradi. Lekin yozuachining izohi mutlaq haqiqatga da'vogar bo'lolmasligini esdan chiqarmaslik darkor. Chumki yozuvchi ham o'quvchi singari xolis kuzatuvchi, xolos. Uning izohi, sharqlari haqiqatga to'g'ri kelmasligi, uni buzib ko'rsatishi mumkin. Shu manoda "Mehrobdan chayon" romanpda muallif izohi o'zgacha bir yo'sinla aks ettirilganligini ta'kidlamoqchimiz.

Muallif nutqining muhim jihatlardan biri uning voqeyani tushunish yetish uchun o'quvchiga "kalit" qodlirishidir. Bunday "Kalit" rolini, avvalo, boblarning nomlanishida ko'ramiz. "Chayonning namoyishi" deyilgan nom butun asar muhitini tushunish uchun o'quvchiga kalit beradi.

Kalit so'zlar matn ichida ham uchraydi. Solih maxdumning "Yeshilib" ketishi o'quvchiga uning xasisligini bildiruvchi kalit bo'lsa, "Abdurahmon silliqqina bola" iborasi nafaqat Abdurahmonning, balki zamonasiing buzuqliklarini ham bildiruvchi belgilardan biridir. Abdurahmonning, balki zamonasining buzuqliklarini ham bildiruvchi belgilardan biridir.

Romanda o'rta hollar tabaqasining vakili Solih Maxdum. Lekin u ham o'z fikrini to'liq ravishda muhit qo'liga berib qo'ygan. Muhit zarblaridan zada bo'lgan ojiz ko'ngli bilan kambag'allik asoratidan doim qo'rqib turadi. Har bir narsadan tergap tejaydi. Uyida issiq non yopmay holbuki, uning bunda bemalol qurbi yetardi, o'quvchilar keltirgan nonlarni qattiq holicha kavshab o'tardi. Oilasidagilarni ham shunga majbur qilardi. Agar kambag'allar toifasining eng katta orzusi non topish, bola-chaqani boqish bo'lsa, uning orzusi faqat pultopish, topgan pulni sarf qilmay saqlab qolish edi. Shu sababdan mahalla ahli ham shunday fikrda edilar.

- Mahalla kishilari Maxdumning bu choponig'a „Moltopar“ deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilg'an kun Mahdumg'a sezdirmay Moltopar savdodan qaytibdi... hali baquvvat, ishqilib yamoqqa chirmamasang yana o'n yilchami Mamaraim deb kulishardilar. (“Mehrobdan chayon” 12-bet)

- A.Qodiriy bu qahramonlarning qanday odam ekanligi haqida umumiy muhokamalardan qochgan, harakatning muayyan lahzasida ruhiy holat qanday ekanligi uni ko'proq qiziqtiradi, qahramonning hatti harakatlarida, qiliqlarida, odatlarida, so'z-gaplarida akslanayotgan karakter qirralari tasviri birinchi planga chiqadi. To'g'ridan to'g'ri xarakteristika berilganda Solih Mahdumning „Habba“ so'zini ko'p ishlatilishi va bu so'z odatda „Ul bir narsadan xursand va rozi

bo'lganda aksar" qo'llanilishini yozgan yozuvchi Ra'noga xondan sovchi kelganda xursand bo'lganini izohlash uchun „Rabba" so'zini keltiradi.

- Habba, - dedi Mahdum ko'zini qisib bir ham shu gaplarni mulohaza qilib qoldik.

Qahramonlarga xarakteristka berishda, birinchi novbatda, ularning kompozitsion ma'noda qanday rol o'ynaganligi muhimdir. Ijobiy qahramonlarning barchasi iloji boricha yorqin nurga boy ranglar yordamida, chiziladi. Ular tabiatdagi yuksaklik, ko'tarinkilik, odamiylik, yaxshilik ayirib ko'rsatiladi. Mana shunday ijobiy qahramonlardan biri ra'no haqida muallif shunday deydi:

– Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas, kishiga kulib qaraganda qizil olma ostida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga elim ra'no guli ochilgan holatda ko'rinar edi (“Mehrobdan chayon” 19-bet);

Ra'no otasidan judaham qo'rqqan edi, ammo onasi Nigor oyim bilan dugonadek sizlashar, hazil huzul qilib onasini kuldirar edi. Bu holatni muallif nutqida ham yaqqol ko'rish mumkin.

- Otasidan achchiqlangan kezlarida onasiga jiddiy qilib „Hamma ayb o'zingizda, otamdan ko'zra tuzukroq erni topib tegsangiz munchalik qiynalishib yurmas edik” – deb ko'ngildan Nigor oyimni kuldiradir. . (“Mehrobdan chayon” 20-bet);

- Ra'no otasidan ranjigan paytida atab yozgan hajvli misralari ham otasining qanday odan ekanligidan dalolat beradi.

- Qattiq ranjigan Ra'no bir kun otasi Solih Mahdumga bag'ishlab qiziq bir hajv yozgan va „o'z kishisiga” ko'rsatib uni kuldirgan ediki, bir kulgulik uchun bu o'rniga bir necha misrani ko'chiramiz:

Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar taqsirim

Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim

Menim uchun bu zirak, Ra'nobonug'a jevak

Deya oyim „ne kerak” yumma to’lar taqsim

Quloq teshish fazil emas, pulni toppish hazil emas,

Zevak to’qish foiz emas, g’avg’o solar taqsim.

Ma’lumki asarning fabulasi Anvar va Ra’noning muhabbati tarixiga qurilgan ko’rinib turgan faktdir. Sevishganlar har doim bir biriga munosib, har doim bir birini ardoqlaydi, tushunadi, avaylaydi.

- Ra’no kanizlar kabi bosh bukib „hozirmen” ishorasini berdi va tabassumga mayl jodu ko’zlari bilan Anvarga ohista bosh ko’tarib qaradi. . (“Mehrobdan chayon” 95-bet)

Ra’no juda soda, ko’ngli oq, beg’araz qiz edi. U kulganda chin yurakdan kuladi va kulganda shunday ahvolga tushadi. Buni muallif nutqida kam ko’rish mumkin.

– Kuchlik kulgidan Ra’noning ko’zlari yoshlanib, o’siq kiprigi juftlandi, kulgi va o’choq harorati bilan ikki yuzi qizil olmaga aylanib, latif burni ustida marvarid zarlari hosil bo’ldi (“Mehrobdan chayon” 182-bet).

Ra’noning hamma syujet linyalarini bir joyga birlashishiga majbur qiladigan nuqtalaridan biri Xudoyorxon obrrazidir. Lekin, “Mehrobdan chayon” romani poetikasining alohida xususiyatlaridan biri shundaki, unda hyamma liniyalarni bir nuqtaga kesishiga majbur qilgan obrazXudoyorxon obrazining tarixi yo’q. Romanda xudoyorxon obrazining xarakteri ko’p ko’rsatilmagan. Biz uning ahvoli, niyati, fikrlarining dunyoqarashi bilan tanisha olmaymiz. Biz ko’rishimiz, his qilishimiz, muhim bo’lgan narsa Xudoyorxon ismli bir “inson”ning obrazidir. Albatta turli epizodlarda xudoyorxon surati bevosita namoyon bo’ladi. Uning qanday o’tirgan, tevarak yonboshdagilarga nedir so’zlar aytgani, ko’ngil ochar ba’zilarida tirjayib turgani, gunohkorlarini “it uvli” deb haqorat qilgani va hokazo harakatlaridan voqif bo’lamiz.

– Inchinun kimxob to’n bilan yo’g’on qornini o’ragan, oq shohi sallasini manglayigacha tushirgan Xudoyorxon ko’rindi. Xon bo’lib arslon terisiga o’ltirdi.

Birdan, undan uzun bo'ylik, qora soqollik, ustiga malla to'n kiygan bir kishi yoliqdi. Birdan xon va raiyat kulib yubordilar. Bu kishi Xudoyorxonning eng yaxshi ko'rgan qizig'I Zaki-gov edi. Qattiq kulgi ko'tarildi. Bu bilan muallif xonning shunday qattiq kulganidan ko'z yoshlari chiqib ketayotganligini tasvirlagan.

Personaj nutqi

Badiiy adabiyotda personajlar nutqi hayotda har biro damning feli, so'zlash tarifi in qanday turmush kechirganligi, madaniyati, ongi, ruhiyati haqida ma'lum tasavvurlar beradi. Shunga ko'ra badiiy asardagi qahramonarning nutqlari, so'zlash farzlari ham turli-tuman, o'ziga xos bo'lib ular xarakterning mazmunini anglashda muayyan vazifani o'taydi. Yozuvchilar qahramonining so'zlash farzini o'ziga xos uslubda qisqa va lo'nda jumladan tashkil topgan suhbatlar, dialoglar, monologlar orqali tasvirlashga, qahramon xarakteridagi belgilarning shaklanishi orqali aks ettirishga alohida e'tibor beradilar. Odatda, shaxslar nutqi ular qurshagan sharoit bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi.

Sharoit ko'pincha personajlar so'zlarining ahamiyatini oshiradi, mazmunini iliqlashtiradi. Muayyan vaziyatga personajning gapirishi shart ekani psixologik jihatdan asoslanadi. Demak yozuvchilar personajlar nutqi orqali o'ziga xos xususiyatlarini ruhiy duyog'arashini, yashash tarzini, xarakterning mantig'ini, muayyan sharoit uchun mushtarak tomonlarini ochib beradilar. Shunga ko'ra personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi. Personajlar nutqi adabiy asarlarda ularning o'zaro so'zlashuvlari ya'ni dialoglar yoki boshqalarga qaratilgan so'zlari, ichki suhbatlari, ya'ni monologlar shaklida ko'rinadi. Adabiy asarlardagi personajlarning o'zaro suhbatlari dilog deb ataladi. Adabiy asarda masalan, "Mehrobdan chyon" romanida ham dialoglar uning ishtirokchilari nutqidagi o'ziga xoslik turli xil lug'aviy vositalar, jumladan, kulgi amalini ifodalovchi so'z va fikrlar yordamida ham o'z aksini topadi. Masalan, Turfa Gulshan, Nozik kabi tengdosh dugonalarning o'zaro suhbatlari asosida qurilgan uyidagi dialogda kulmoq, qaramoq, xe-xe-xe kabi lug'aviy vositalar qizlarning ichki dunyosini, ularning xushsurat, chiroyli yigit Anvarga bo'lgan g'oyibona ishqini ifodalash uchun vosita vazifasini bajargan.

Adabiy asarda personajlarning boshqalarga qarata so'zlashi yoki o'z-o'zi bilan ruhan suhbatlashishi monolog deb ataladi. Personaj nutqi badiiy asar qahramonlarining nutqi hisoblanadi. Yozuvchi jamiyatdagi turli-tuman tabiatli kishilar hayotini rang-barang tabiatli odamlar xarakterini o'rganadi va ularning tipik fe'l xususiyatlari personajlarning nutqlari orqali aks ettiriladi. Odatda aqshamonlarning individual fe'llari uning o'z hayot tajribasi, dunyoqarashi, focus obrazli xulq-atvori, madaniy saviyasi, psixologiyasi kasb-korini ravshan xarakterlab beradi. Qahramonning nutqi orqali uning qanday odam ekanligini payqab olish mumkin. Har bir qahramonning fel-atvori o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Yozuvchi nutqi uning asarda tasvirlagan voqealardagi o'rniga, individual xarakter-xususiyatlariga qarab ishlab chiqadi. Bu o'rinda masalan, "Mehrobdan chayon" romanida tasvirlangan qizlar o'rtasida bo'lib o'tgan bir bahs-munozara personajlar tilinnig o'ziga xosligigi bir nazar tashlaylik.

O'zda davrasiga yetkuncha necha qayta orqamg'a qaradim, – dedi va hozir va uzoq tili olib, bir oz to'xtadi. – shunday men pari yigitga oshiqman. Uch oydan beri oshiqman, Gulshan opa.

- Pari yigitga oshiqsan. Xe-xe-xe.
- Nega kulasan, Gulshan opa?... ishonmasang Turfadan so'ra.
- Oshiqligingga kukunagman. – dedi Gulshan kulib,
- Sen aytgan yigit pari emas.
- Hozir o'rnidan sapchib turdi.
- Kim bo'lmasa?

– Odamichkaridan Kimxob to'n bilan yo'g'on qorin o'rgan, oq shohi sellasini manglayigacha tushurgan Xudoyorxon ko'rindi. Xon ko'rinishi bilan yosh sipolilar tomondan "sarbozlar" kuy chalishdi va ashulasi eshitildi. Ya'ni yosh sipolilar nutqida shohga qarata shunday deyiladi:

Shaxanshoxim, shaxanshoxim, baxtingiz davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko'rsin! Anvar bila Shahidbek o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatda

vazifalar va mansab to'g'risida gap ketadi. Shahidbek anvarga sarmushiylikni xohlamaysizmi? Deb so'radi. Shunda Anvar shunday nutq so'zladi:

- Kulishar mubolag'a qilgandek menda iste'dod yo'q, – dedi Anvar, yerg'a arag'an holda – mendan keyin o'rdag'a kechagina bo'lg'an menga o'xshash yoshlarning “bosh mirzo bo'laman” deb umidlanishlari ayni bir kulgidir (“Mehrobdan chayon” 34).

Anvar Shahidbekka qarab, bu bosh mirzo mansabini kutgan, o'n yigirma, balki o'ttiz yillab ko'zini to'rt qilib kelgan mushriylar bor, bu mansabga ish ham ko'z tikolmayman bu kulgili holat emasmi deb so'raydi va shunday nutq so'zlaydi:

- Yan dunoqchimanki, bu vazifa kamida o'z, yigirma va balki o'ttiz yillab ko'zini to'rt qilib, kelgan mushriylar nufuzi va shoirlar bor. Ularning yonida menga o'xshash bir yosh tajribasizning ham tayinlanishi kulgi emasmi? (“Mehrobdan chayon” 34).

Anvar bilan Sultonali nizo suhbatida ham shoir “Madhiy”ning ahvoli to'g'risida gapiriladi. Uning ahvoli ma'lum: xonni maqtash, o'ziga yoqmaganini hajv qilish, xotinbozlik, bachchabozlik bilan ovvora bir betayin “Madhiy”ning yorlig' ololmasligiga yana bir sabab bor ediki, bu sirni o'rdadan faqat bir necha kishilargina bilar edik...

- Xo'sh?
- Buni so'ramang-da, kulmang
- Xo'sh, xo'sh?
- Sultonali mirzo kuldi va tovushini sekinlatdi.

Bu ham sultonali tilidan aytilgan “buni so'ramang-da kulmag” so'zi ham personaj nutqiga misol bo'la oladi.

Ikki sevishgan qalb Anvar va Ra'noning Umar Hayyom kitobi to'g'risidagi suhbatida ham personaj nutqini kuzatish mumkin.

Ra'no kitobni sekingina yopib Anvarga uzatdi:

- Siz o'qing, men eshitay.
- O'zing o'qi, baxilsan-da,

- Men to'g'ri o'qiy olmayman, tunovi kungidek kulasiz...
- Jo'rttaga xato o'qib o'zing kuldirding...

Kabi misolarni ko'rish mumkin.

Mana bu parchada Sultonali Anvarni yupatadi va ko'klarga ko'taradi.

Butun mamlakat qizlari Mirzo Anvar uchun soch taraydi. Agar siz xohlasangiz qozikalon yoki domla shag'ovul va shular singari ko'lankalarga kuyov bo'lmaysizmi?

Kesak otib arslonni yengmoqchi bo'lgan galvarslarning ishiga kulgim qistaydir... ("Mehrobdan chayon" 192).

Ikki sevishgan qalb o'rtasida dialogda Anvar Ra'noga yana bir kul deb murojaat qiladi.

- Yana bir kul, Ra'no ("Mehrobdan chayon" 197).

Shu dialog davomida Ra'no tundlikka og'ishib, Anvarga rad javobini beradi ya'ni; kulgi soati emas.. ("Mehrobdan chayon" 197).

Odatda, personaj, qahramonning individual fe'li uning o'z hayot tajribasi, dunyoqarashi, xulq-atvori, madaniy saviyasini xarakterlab beradi.

Biz tahsil qilayotgan "Mehrobdan chayon" romanida ham personajlar nutqi ularning xarakterini, xulq-atvorini ochib berish uchun xizmat qiladi.

- Sabzini mayda to'g'raymi, yirik?

Bir bore mish, bir yo'q emish, o'tgan zamonda bir qiz bor emish: ko'ziga yumush kelib yum-yum yig'lagan emish, sababbini so'rasalar, o'tin ho'l emish, ammo qizning achchig'I hiyla mo'l emiash...

- Teskari qarab kulma, hoy qiz! Oh latofatlar qo'limni kesdim!

Ra'no yalt etib Anvarning qo'lga qaradi

Misollardan ko'rinadiki, o'zbek tilida kulgi amalini ifodalovchi "kulmoq" fe'li yakka holda ham, boshqa so'zlar bilan birga qo'shma holda ham (kulib yubordi, kulib qo'ydi kabilar) holda qo'llanadi. Lekin bunday yollanishdan asosiy maqsad kulgi amalini umumiy ifodalanishidir.

3. Ra'no yugurib ariqqa ketdi, Nigor oyim o'ltirgan joyidan "Ra'noning aqli tushsin" deb kulib qo'ydi ("Mehrobdan chayon" 4); ra'no dadasini uzoqlatib , boshini ko'tardi , onasiga o'pka aralash kulib qaradi. ("Mehrobdan chayon" 21). Sultonali yengilcha kulib qo'ydi. ("Mehrobdan chayon" 23). Rano qizarib turdi-dayana gapni kulgilikka oldi. ("Mehrobdan chayon" 28). Ra'no butun tovushini qo'yib kulib yubordi. ("Mehrobdan chayon" 29). Sultonali mirzoga o'xshaganlar yer ostidan yonidagisiga kulib muomala qilar edi. ("Mehrobdan chayon" 73). Anvar javob berish o'rniga kulib so'rab qo'ydi va o'tirib, arizalar,ko'ra boshladi. ("Mehrobdan chayon" 78). Ra'no Mahdumning orqasidan nima uchundir kulib-kulib yubordi. ("Mehrobdan chayon" 80); Ra'no yuzini chetga o'girib, kulib yubordi. ("Mehrobdan chayon" 81); Anvar kulimsib qo'ydi. ("Mehrobdan chayon" 92); Ra'no o'ziga qarab kelguvchi Anvarga yer ostidan kulimsib olgach, bir oz ko'rinib turgan.

O'zbek tilida kulgi amalini ifodalash uchun faqat so'zlar emas balki, kulib yubordi, xoxolab yubordi, baqirib yubordi, kulib qo'ydi, iljayib qo'ydi kabi so'z birikmalari hamda o'zining tanobi kabi frazalar ham ishtirok etadi.buni bizning "Mehrobdan chayon" romani matni olib borishimiz kerakligi ham to'liq tasdiqlandi.

Ma'lumki, har qanday ilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham kulgi amali juda xilma-xil birikmalar va iboralar yordamida ifodalanadi.

O'zbek tilida kulgi amalini ifodalsh shu birikmalar va frazalarning funksional semantic xususiyatlari.

O'zbek tilida kulgi amali "kulib qo'ydi" birikmasi yordamida ifodalanganda bu amalning harakati sifatida namoyon bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga kulmoq fe'li qaramoq ko'makchi fe'li bilan birga birikib, ikki amalning uzviy bog'liq holda ifodalanishi namoyon bo'ladi: kulib qaradi.

Shu bilan birga kulgi amalining murakkab tarzda ifodalanishi kulgilikka olmoq birikmasi yordamida namoyon bo'ladi. Bunda kulgi so'zidan -lik qoshimchasi yordamida yasama so'z hosil qilinadi."olmoq"ko'makchili fe'li esa

anashu yasama soʻz orqali yasalgan kulgi amalining suniy yasama ekanligini ifodalashga xizmat qiladi.

Shu biolan birga romanda kulgi amalining toʻsatdan sodir boʻlganlarni ifodalash uchun kulmoq feʻlidan keyin “yubormoq” koʻmakchili feʻl qoʻllab “kulib yubormoq” birikmasi hosil qilingan. Bu birikma yordamida kulish harakati birdaniga toʻsatdan sodir boʻlganligini ifoda ostida boʻlgan.

Oʻzbek tilida “muomala qilmoq” feʻli boʻlib maʼnosini bildiradi.

Tilimizda kulgi amalining kuchsiz tarzda namoyon boʻlishini ifodalash uchun “kulimsiramoq” feʻlidan foydalanishi ishimizning birinchi bobida aytilgan edi. Xuddi shu feʻldan keyin “quymoq” koʻmakchi feʻli birikib, “kulimsirab” qoʻymoq birikmasi hosil qilinadi va bu birikma kulimsirash amalining kuchsiz tarzida bir zumda namoyon boʻlganligini ifodalashga xizmat qiladi.

II BOB 3-qism

Badiiy asarda turli-tuman personajlar qatnashar ekan, albatta, ularning har biriga xos nutq ham yaratilishi kerak.

Bu nutq tipikligi va individualligi, obrazlilik bilan har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, hulq-atvorini, ma'naviyatini, salohiyatini, butun borlig'ini mubolag'ali va ishonarli qilib ochib berishni ko'rsatishi lozim. Chunki, har bir odamning nutqida uning bo'y-basti, (ruhiy kayfiyati o'z tuyg'ulari ham) aks etadi. Shuning uchun ham so'z xarakter ko'zgusi sanaladi¹.

Personajlar nutqi asarda tasvirlanayotgan kishilarning o'zaro suhbatlari, o'ylari yoki bir-birlariga yozgan maktublaridan yuzaga keladi. Personajlar nutqi jamiyatdagi xilma-xil tabaqa vakillarini obrazlarini yaratishga yordam beradi².

A.Qodiriy badiiy til vositalaridan o'rinli foydalangan. Bu asardagi personajlar nutqida ham "kulgi" holatini ifodalovchi leksik – frazeologik birikmalarining personaj nutqida qo'llashi orqali ham ishonch hosil qilish mumkin.

¹ И.Султон. Адабиёт назаряси. 129 бет

² Х.Умутов. Адабиётшунослик назаряси. – Тошкент. 2002, 154-155 бет.

ILOVA

1. **Kulib qo'ydi** – Rano yugurib chiqib ketdi, Nigor oyim o'ltirgan joyidan “Ra’noning aqli tushsin deb kulib qo’ydi. (“Mehrobdan chayon” 4-bet).
2. **Kulib qaradi** – Ra’no dadasini uzoqlatib, boshini ko’tarib onasiga o’pka aralash kulib qaradi (“Mehrobdan chayon” 5-bet).
3. **Kulib qaraganda** – Yuzi chiroq ham emas, oy kulcha ham deb bo’lmas, kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo’lar, go’yo bizga chin ra’no guli ochilgan holatda ko’rinar edi. (“Mehrobdan chayon” 5-bet).
4. **Kuldiradi** – Otasidan achchiqlagan kezlarida onasiga jiddi qilib “hamma ayb o’zingizda otamdan ko’ra tuzukroq erni topib tegsangiz munchalik qiynalishib yurmas edik” deb bo’g’ilgan Nigo oyimni kuldiradi.
5. **Kuldirgan edi** – Qattiq ranjiga kun otasi – Solih Mahdumga bag’ishlab qiziq bir hajv yozgan va “o’z kishisiga” kishisiga ko’rsatib uni kuldirgan edikim, biz kulgulik uchun bu o’ring’a bir necha misrani keltirishimiz mumkin.
6. **Kulimsiragan** – Solih Mahdum kulimsiragan kuyi dahlizga yurib bordi va oyog’ini kavushiga uzatdi. (“Mehrobdan chayon” 5-bet).
7. **Tabassum bilan** – Mahdum mashqxonadan chiqib ichkari kishga odim uzg’an holatda darvozadan sipdi kiyingan bir kishi kirdi va mahdumga tabassum bilan salom berib, yuqorig’a yurib keldi. (“Mehrobdan chayon” 21-bet).
8. **Tabassum** – O’rdaliq tabassum ichida Mahdumga qaragandan so’ng yig’ishtrib oldi. (“Mehrobdan chayon” 21-bet).
9. **Kulib** –Xo’b, –xo’b, – dedi kulib mahdum, – Anvardan eshitganim bor edi, janoblarning tavsiflarini eshitganman. (“Mehrobdan chayon” 22-bet).

10. **Kuldi** – Ra’no kuldi. (“Mehrobdan chayon” 26-bet).
11. **Tabassum aralash** – Va tabassum aralash – “hormang” dedi. (“Mehrobdan chayon” 27-bet).
12. **Kulishdilar** – Chuv kulishdilar. (“Mehrobdan chayon” 27-bet).
13. **Kulimsib** – Yolg’oning qursin Ra’no, – dedi Anvar kulimsib, – qanday mehmon?
14. **Kulimsiradi** – Anvar o’ylanib yana kulimsiradi (“Mehrobdan chayon” 27-bet).
15. **Kulgulikka** – Ra’no qizarib turdi-da, yana gapni kulgulikka oldi. (“Mehrobdan chayon” 28-bet).
16. **Kulishida** – Biroq uning bu so’nggi kulishida keklanish bor edi. (“Mehrobdan chayon” 28-bet).
17. **Kulib yubordi** – Ra’no burun tovushini qo’yib kulib yubordi. (“Mehrobdan chayon” 29-bet).
18. **Kulgi ichida** – Bu kun qag’urma sho’rbaga, – dedi Ra’no kulgi ichida, – qattiq non to’grab yeysiz jaz o’rnig’a sholg’om chaynaysiz. (“Mehrobdan chayon” 29-bet).
19. **Kulib qaradi-da** – Anvarga bir kulib qaradi-da, Mansurni yetaklab ichkariga chopdi. (“Mehrobdan chayon” 29-bet).
20. **Kulimsib, qo’ydi** – Anvar qo’li laganda ekan, kulimsib, qo’ydi. (“Mehrobdan chayon” 33-bet).
21. **Kulgidir** – Undan keyin o’rdaga kichkina borg’an yerda o’xshash yoshlarning “bosh mirzo bo’laman” deb umidlanishlari ayni bu kulgidir. (“Mehrobdan chayon” 34-bet).
22. **Kulgi emasmi** – Ularning yonida menga o’xshash bir yosh tajribasizning ham tanalaishi kulgi emasmi? (“Mehrobdan chayon” 34-bet).
23. **Kulimsidi**– Anvar kulimsidi (“Mehrobdan chayon” 35-bet).
24. **Kulimsitdi** – Mahdumning keying jumlasini Anvarni kulimsitdi. (“Mehrobdan chayon” 38-bet).

25. **Kulmas** – O'z teng ibolalar bilan oz aloqa qilar, ularga ham aralashar va ortiqcha o'ynab kulmas, hamisha uning ko'zida bir mung yotar edi. ("Mehrobdan chayon" 45-bet).
26. **o'yin-kulgi** Ra'no yonidagina o'yin-kulgi bolasiga olishinar, Ra'noni yetaklab boqchag'a ko'chadagi katta suv bo'ylanga chiqib, bog'chadagi gularning isini uchib yurgan qushlarning nolasi deb qo'yar edi. ("Mehrobdan chayon" 45-bet).
27. **Xe-xe-xe** – Xe-xe-xe, bolasan, qizim bolasan, – deb kuldi Mahdum, – Anvar akang mehmonxonada yotadi deysan ("Mehrobdan chayon" 51-bet).
28. **Kulimsib qarar edi** – Ra'no kelar ekan, o'pkalik ko'z bilan Anvarga kulimsib qarar edi. ("Mehrobdan chayon" 52-bet).
29. **Kulimsiragan holda** – Ra'no yarim yo'lda to'xtab kulimsiragan holda Anvarga qaradi. ("Mehrobdan chayon" 59-bet).
30. **Iljayib** – Anvar iljayib qo'ydi. ("Mehrobdan chayon" 160-bet).
31. **Kuldim** – men kuldim ("Mehrobdan chayon" 163-bet).
32. **Kulmadi** – Sultonali yana kulmadi ("Mehrobdan chayon" 165-bet).
33. **Kulma** – teskari qarab kulma, hoy qiz! ("Mehrobdan chayon" 180-bet).
34. **Kulishdi** – Ra'noga qo'shilib kulishdi. ("Mehrobdan chayon" 182-bet).
35. **Kul** Yana bir kul Ra'no ("Mehrobdan chayon" 197-bet).
36. **Kulaman** – lekin men kulaman ("Mehrobdan chayon" 249-bet).
37. **Iljayib qo'ydi** – Mamatqul nima uchundir iljayib qo'ydi va ma'qul degan kabi bosh irg'atdi. ("Mehrobdan chayon" 168-bet).
38. **Kuchlanib kuldi** – Sultonalining hangomasiga kuchlanib kuldi, ammo yana og'iz ochishga majolsiz kabi o'ltirib qoldi. ("Mehrobdan chayon" 184-bet).